

SHE'RIYATDA POLISEMANTIK SO'ZLARNING QO'LLANILISHI (ERKIN VOHIDOV IJODI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8133427>

Naimjonova Sitora Uyg'un qizi

Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi o'quvchisi

Ilmiy rahbar: Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning ba'zi she'rlarida polisemantik so'zlarning qo'llanilishiga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan. Ma'no ko'chishning bir necha turi shoir she'rlari tahlili asosida o'rganilgan. Shuningdek, poetik ifoda talqinida polisemantik so'zlarning o'rni xususida ilmiy-nazariy tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar

polisemantik so'zlar, ma'no ko'chish, tag ma'no, she'r, she'riyat, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya, tahlil, misra, badiiy, o'z ma'no.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОЛИСЕМАНТИЧЕСКИХ СЛОВ В ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ЭРКИНА ВАХИДОВА)

Аннотация

В данной статье представлены комментарии к употреблению многозначных слов в некоторых стихотворениях Героя Узбекистана Эркина Вахидова. На основе анализа стихотворений поэта изучено несколько видов передачи смысла. Также представлен научно-теоретический анализ роли многозначных слов в интерпретации поэтического выражения.

Ключевые слова

многозначные слова, передача смысла, подтекст, стихотворение, поэзия, метафора, метонимия, sinekdoxa, функция, ирония, анализ, стих, художественный, собственный ма.

USE OF POLYSEMANTIC WORDS IN POETRY (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF ERKIN VAKHIDOV)

Abstract

This article presents comments on the use of polysemantic words in some poems by the Hero of Uzbekistan Erkin Vahidov. Based on the analysis of the poet's poems, several types of meaning transfer have been studied. A scientific and theoretical analysis of the role of polysemantic words in the interpretation of poetic expression is also presented.

Key words

polysemantic words, meaning transfer, subtext, poem, poetry, metaphor, metonymy, synecdoche, function, irony, analysis, verse, artistic, own ma.

She'riyatda badiiy obrazli fikrlash, o'quvchiga favqulodda ta'sir qilishda polisemantik so'zlarning o'rnini muhim. O'z asarlari orqali samimiyligi, so'zga talabchanligi hamda estetik did bilan yondashib, polisemantik so'zlar vositasida badiiy tafakkurini namoyon qilgan ulug' shoir - O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri, o'zbek she'riyatining ham barmoq, ham aruz, ham sarbast vaznlarda birdek yuksak saviyada ijod qilgan Erkin Vohidovdir. "Ona tilimizdagi ipakdek mayin, kamalakdek rang-barang, g'oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, goh hazin, goh samimiy tabassum uyg'otuvchi tashbehlar, o'tkir xulosalar - bular bari ulkan shoirimiz qalamiga mansub betakror fazilatlaridir", - deydi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, ustoz shoir haqida [1,406].

Inson tug'ilishidan to umrining so'nggi onlarigacha yuksak sir-sinoat ichra yashirin o'tadi. Bu sirlarning aksariyati oydinlashsa-da, faqat bir makon ichidagi sir hamisha o'z zulmatiga ko'milganicha qolaveradi. Bu ma'vo qalbdir. Ko'ngil sirlaridir o'z qobig'idan, o'z dunyosidan boshqalarni aslo voqif etmaydigan, hayotga o'zini sira oshkor qilmaydigan. Darhaqiqat, bu sirlar fosh etilolmaydi. Ammo o'zgarlar tomonidan his qilishi mumkin. Bu kabi tuyg'ularni his eta bilish va shu bilan birga ularni qog'ozlarda oddiy so'zlar bilan go'zal tasvirlay olish esa yuksak mahoratdir. Shu ma'noda buni faqat mohir shoirlargina uddalay olishini ta'kidlash mumkin. Poetik mohirlikni o'z asarlarida namoyon etgan shoir, ham mahoratli dramaturg Erkin Vohidov ijodi asrimizda zamonaviy o'zbek she'riyatining beqiyos mayog'i bo'lib kelyapti, deyish mumkin. Shoirning ko'plab asarlari hozir ham o'z mavqeyini, samimiyligini hamda ma'no-mantig'ini yo'qotganicha yo'q. Ijodkor asarlarini qayta-qayta o'qish orqali haligacha betakrorjilosini mohirona chiroyini saqlab turganligini sezish mumkin.

Erkin Vohidov asarlari har tomondan mukammal bo'lib, adib ijodida badiiyat hamda mohiyat va uning turli jihatlari ham o'ziga xos talqin etilgan. Shu o'rinda shoir she'rlarida ma'no ko'chish turlari ham muhim ahamiyat kasb etganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. "So'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishiga ma'no ko'chishi deyiladi. Ma'no ko'chishining nima asosida ro'yobga chiqishiga ko'ra

metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud. Nutqimizdagi eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir" [2,105].

Rahmi kelib bulutning

Yig'lab to'kar yoshini.

Qushlar qochar, majnuntol

Ko'taradi boshini.

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi,

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi [3, 5].

Yuqorida keltirilgan satrlar Erkin Vohidovning "Manzara" she'ridan olingan bo'lib, unda ma'no ko'chish turining eng keng tarqalgan metaforani ko'rishimiz mumkin. "Metafora (grekcha: ko'chirish) – biror predmet shaklining, belgisining, harakatining o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirishdir[4,75]: masalan, misralarda keltirilganidek, harakat o'xshashligi – odamning yig'lab yosh to'kishi(o'z ma'no.) – bulutning yig'lab yosh to'kishi (ko'chma ma'no) bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Bu hol adabiyotda badiiy she'r san'atlarining tashbeh san'atiga ham to'g'ri keladi. Chunki "tashbeh – biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o'xshatishdir" [1,119].

Quyidagi shoirning "Bizlar arra tortmoqdamiz" nomli she'ridan keltirilgan parchada ma'no ko'chish turining vazifadoshlik usuli aks etganligini uchratamiz. "Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifiy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi deyiladi" [2,114].

Bizlar arra tortmoqdamiz,

Arramizning tishi yo'q.

Nega arrang tishi yo'q, deb

So'raydigan kishi yo'q [5,56].

Inson tishi hamda arra tishi ular uchun bir xil bo'lgan tayanch vazifasi asosida yuzaga kelgan. Bu esa aynan vazifiy birxillikka asoslanib vazifadoshlik ma'no ko'chish turiga to'g'ri kelgan.

Yo tongda bir go'zal chiqdimi suvga,

Nigohing tushdimi ko'zi ohuga?

Seni band etdimi labidagi hol,

So'yla, majnuntol? [3,9]

"Majnuntol" she'rining parchasida esa sinekdoxa ma'no ko'chish usulini ko'rishimiz mumkin. "Mumtoz she'riyatda oy yuz, qorako'z, oq bilak, sarv qad, egma qosh kabi atamalar yor timsolini ifodalash uchun ishlatiladi va ular ham

sinekdoxaga misol bo'ladi" [2, 113]. Ushbu atama, "sinekdoxa (grekcha: birga anglash, nazarda tutish) – shaxs yoki predmet qismi nomini aytish bilan uning o'zini tushunish yoki o'zining nomini aytish bilan uning o'zini tushunish asosida ma'no ko'chishdir" [4,75]. Bir so'z bilan aytganda, butun orqali qism, qism orqali butunni ifodalashdir. Parchada kelgan bir go'zal ham shu xususda yorning go'zalligi, chiroyi orqali uning o'zini tushunish ya'ni sinekdoxa usulida kelyapti. Bundan tashqari shu to'rtlik o'zining o'zgacha samimiyligi, nafosati hamda ohangdorligi bilan o'quvchining butun e'tibor-u xayolini tortib oladi. Bu esa o'z o'rnida Erkin Vohidovning so'z bilan bo'lgan yaxshi munosabatini ham namoyon qiladi. "So'z – zabarjad, So'z – gavhar, oltin. Dunyoning eng ajib, eng sirli va sehrli sayohatlaridan biri So'z olamiga sayohatdir. Negaki, So'z yaralishdan mo'jiza"[6,5], – deb aytadi shoirning o'zi "So'z latofati" kitobida. Yozuvchining so'zga bo'lgan iliq munosabatini, hurmatini, e'tirofi va e'tiborini ayni shu fikrlarda ham ko'rish mumkin. Shu ma'noda Erkin Vohidov so'zni qadrlagan, uning ko'ngliga yo'l topa olgan mahoratli ijodkordir.

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor.
Sen haqingda yozib to'rt satr,
Sirdoshiga asta ko'rsatib,
Qo'shni qizga bermagan kim bor [1, 12].

Yuqoridagi shoirning eng go'zal, misralari kuyga solingan "Sevgi" deb atalgan she'ridan keltirilgan parchada ham ma'no ko'chishning yana bir turini ko'rishimiz mumkin. Bu tur metonimiyadir. "Metonimiya (grekcha metonymia – qayta nomlash) – narsa va hodisalar o'rtasida makon hamda zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishidir" [2, 109]. Parchada kelgan, "o'n sakkizga kirmagan" jumlasini orqali biz "o'n sakkiz yoshga kirmagan" ma'nosini tushunamiz. Ya'ni qayta nomlash hodisasini keltirib chiqargan. Ushbu she'riy parchaning chiroyi va ohangraboligi ham shu o'rinda alohida e'tiborga molik.

Shoir Erkin Vohidovning doimiy hajviy qahramoni – Matmusa. Quyidagi misralarda Matmusaning xalqi bilan bog'liq tasvirda kinoya qo'llanilishi she'r g'oyasini ochishda o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Donishqishloq qayerda?
O'zimizning tomonda.
O'sha qishloq xalqidek
Dono xalq yo'q jahonda [7, 4].

Aslida Matmusaning o'zgacha donoligi muhit ta'siri ostida uning qishloq ahlining ham shu kabilardan ekanligini anglatadi. Ammo yuqoridagi misralar bu gapning teskarisini anglatib, yumshoq kesatiq bilan keltiryapti deyish mumkin. Bu esa ma'no ko'chishning yana bir usulini bildiradi. Bu usul kinoya bo'lib, u adabiyotlarda aytilganidek, ma'no ko'chish turlarining asosiy tarkibi bo'lmay, og'iz uchida tushuntirilib ketilnadigan turdir. "Kinoya - so'z ma'nosini aks ma'noda qo'llash" [2,115]. Bu jahonda o'sha Donishqishloq kabi dono xalq yo'qligi kinoya bo'lib kelganini guvohi bo'lamiz.

So'z tilini tushunmoq, bilmoq ham bir san'at, mashaqqatdir. U bilan suhbatlashmoq esa yuksak mahoratga egalikdan dalolat. Erkin Vohidov mana shunday yuksak mohirlik sohibi ekanligini uning asarlari orqali ko'rishimiz mumkin. Yuqorida o'rgangan asarlardan keltirilgan parchalar bilan ijodkorning so'zga boyligini, buyuk iste'dodini hamda go'zal samimiyat badiiyatini polisemantik so'zlar orqali aks ettirishi, bunda maqsadga erishishi shoirning poetik saviyasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu ayrim she'rlaridagi jihatlar haqida fikr-mulohazalarimiz bo'lib, hali polisemiya hodisasini eng yuksaklar namunalari shoirning boshqa she'rlarini o'rganib, yanada kengroq xulosalarga kelish mumkin, bizningcha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sariyev Sh. Adabiyot. -Toshkent:, "REGBOOKS". 2020. -B. 406, 119.
2. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. -Toshkent:, "Yosh kuch". 2021. -B. 105, 114, 113, 109, 115.
3. Vohidov E. Ishq savdosi (Saylanma). -Toshkent:, "Sharq". 2000. -B. 5, 9, 12.
4. Hamrayev M. Qo'llanma. -Toshkent:, "Sharq". 2015. -B. 75, 7
5. Vohidov E. Umrin daryosi (Saylanma). -Toshkent:, "Sharq". 2001. -B. 56.
6. Vohidov E. So'z latofati. -Toshkent:, "O'zbekiston". 2014. -B. 5.
7. Vohidov E. Qiziquvchan Matmusa. -Toshkent:, Yoshlar nashriyot uyi. 2018. -B. 4.